

XALQARO OLIMPIYA QO'MITASINING XALQARO HUQUQIY LAYOQATI MASALALARI

ANVAR XAYOTOV

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti.

E-mail: sunshine_83@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xalqaro olimpiya qo'mitasining xalqaro huquqiy layoqati, mohiyati, huquqiy layoqatni amalga oshirishning asosiy uslublari va yondashuvlari tahlil etilgan bo'lib, XOQning Olimpiya Xartiyasi qoidalariga asoslangan qarorlari xalqaro huquq sub'yektlari, shu jumladan davlatlar uchun majburiyligi va ular tomonidan qat'iy rioya qilinishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Xalqaro Olimpiya harakati, Olimpiya Xartiyasi, xalqaro huquq sub'yekti, xalqaro nodavlat tashkiloti, xalqaro hukumatlararo tashkilot, xalqaro-huquqiy tan olish.

Kirish. Sport sohasi, boshqa har qanday faoliyat turi kabi xalqaro miqyosda huquqiy tushunishni va sifatli tartibga solishni talab qiladi. Zamonaviy sport – bu xilma-xil xarakterdagi munosabatlardan tarkib topgan juda murakkab o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, ular huquq bilan, shu jumladan, xalqaro faoliyatda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar va qoidalar tizimi sifatida xalqaro sport huquqi bilan tartibga solinadi. Olimpiya sporti professional sport bilan bir qatorda jahon yuqori natijalar sportining ajralmas qismidir. Olimpiya sporti sohasi nafaqat Olimpiya o'yinlarini, balki xalqaro Olimpiya harakati tarkibiga kiruvchi xalqaro sport federatsiyalari shafeligida o'tkaziladigan milliy, qit'a va jahon chempionatlarini ham o'z ichiga oladi. Ushbu harakat dunyodagi eng uyushgan va tan olingan xalqaro sport harakati shakli bo'lib, o'z saflarida Birlashgan Millatlar Tashkilotidan ko'ra ko'proq mamlakatlarni birlashtiradi. Unda Xalqaro Olimpiya qo'mitasi (XOQ) boshchiligida ikki yuzdan ortiq Milliy Olimpiya qo'mitalari ishtirok etadi (MOQ).

Olimpiya Xartiyasi qoidalarida asosida qabul qilingan XOQ qarorlari qat'iy bo'lib, ularni qo'llash yoki talqin qilish bilan bog'liq har qanday nizolar faqat XOQ Ijroiya qo'mitasi va ba'zi hollarda Xalqaro sport hakamlik sudi (TAS) tomonidan hal qilinishi mumkin. Mohiyatan qaraganda, har qanday holatda, XOQ Olimpiya o'yinlari bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilishda so'nggi instansiya hisoblanadi. Shu bilan birga, XOQning vakolat doirasi ancha keng bo'lib, u bugungi kunda butun dunyo sportini boshqaruvchi tashkilotga aylandi deyish mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, XOQ tasarrufi va boshqaruvi ostida barcha qit'alarni o'z ichiga olgan ulkan "jahon sporti xo'jaligi"

mavjud. XOQ auditoriyasi – bu sayyoramizning milliardlab aholisini tashkil etuvchi ulkan armiya bo'lib, davlatlarning mansabdor shaxslari, ularning darajasi qanchalik baland bo'lmasin, XOQning qoidalar va ko'rsatmalari ustidan hech qanday hokimiyatga ega emas. Ko'p hollarda ular faqat XOQ tomonidan tashkil etiladigan Olimpiya o'yinlari bayramida tomoshabin bo'la oladilar xolos.

Shu o'rinda bir qator haqli savollar tug'iladi: biron-bir tashkilot xalqaro ommaviy huquq sub'yekti bo'lmagan holda, bunday ulkan harakatni boshqara olishi, ushbu darajadagi muammolarni hal qilishi mumkinmi? Nodavlat tashkilotining qarorlari xalqaro huquqning asosiy sub'yektlari bo'lgan davlatlar uchun qay darajada majburiydir?

Asosiy qism. Xalqaro huquq sohasidagi huquqshunoslarning aksariyat qismi, xalqaro tashkilotlarning qarorlari davlatlar uchun majburiy xususiyatga ega emas deb qarashadi. Davlat suvereniteti, ularning fikriga ko'ra, xalqaro tashkilotlarning (hatto BMT kabi tashkilotlarning ham) har qanday tavsiyalaridan ustundir.

Bunday qarashlarning shakllanishiga turtki bo'luvchi sabablar ham talaygina. BMT Bosh Assambleyasining dunyoning turli nuqtalaridagi mojarolar yuzasidan qabul qilingan ko'plab rezolyutsiyalari, ular qabul qilinishiga sabab bo'lgan mamlakatlar tomonidan shunchaki e'tiborsiz qoldirilganligi holatlarini ko'p kuzatganmiz. Nodavlat tashkilotlari organlarining qoidalariga asoslangan qarorlarning xalqaro kuchi haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Bugungi kunda, ko'plab mutaxassislarning fikriga ko'ra, xalqaro tashkilotlar ishtirokida ishlab chiqilgan ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalar ishtirokchi tomonlar uchun majburiy kuchga ega, shu jumladan,

hukumatlararo xalqaro tashkilotlar haqida gap ketganda, xalqaro tashkilotlarning ta'xis hujjatlari ham majburiy xususiyatga ega bo'ladi. Ammo bunday holat nodavlat xalqaro tashkilotlarga taalluqli emas, chunki ular hukumatlararo xalqaro tashkilotlardan farqli o'laroq, xalqaro xususiy huquq sub'yekti bo'lib, xalqaro ommaviy huquq sub'yekti bo'lib hisoblanmaydi.

Bir qarashda bahslashadigan hech narsa yo'qdek tuyuladi: barchasi oldindan qaror topgan tasavvurlar doirasiga mos keladi. Ammo muammoni chuqurroq ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunday xulosalarni rad etadigan holatlarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Masalan, xalqaro tashkilotni xalqaro huquq sub'yekti sifatida ifodalashda ba'zi mualliflar faqat ularning nodavlat tashkilotlarda mavjud bo'lmagan xususiyatlarinigina ko'rsatadilar. Bundan esa quyidagicha xulosa qilinadi: ko'rib chiqilayotgan tashkilot belgilangan "umume'tirof etilgan" xususiyatlarga ega emas ekan, demak u huquq sub'yekti ham hisoblanmaydi. Bunday holatlar yangilik bo'lmay, yaqin o'tmishda, hatto davlatlararo tashkilotlarning o'zlari (shu jumladan BMT ham) ning xalqaro huquq sub'yekti ekanligi rad etilganda, ushbu fikr tarafdorlari asosiy argument sifatida bunday tashkilotlarning davlatlar kabi suvereniteti, o'z hududi, mustaqil irodasi va davlatchilikning boshqa "atributlari"ga ega emasliklarini keltirishgan. Bunday yondashuvda haqiqat mezoni sifatida amaliyot hech qachon hisobga olinmagan.

Ushbu ma'nosiz munozaraga chek qo'yish uchun BMT xalqaro sudining konsultativ xulosasi kerak bo'ldi. Xalqaro huquq tarixida xalqaro tashkilotlar xalqaro da'vo sub'yektlariga aylangan holatlar ma'lum. Xalqaro sudning 1949-yil 11-apreldagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti xizmatida bo'lganda yetkazilgan zararni qoplash masalasi bo'yicha konsultativ xulosasida ta'kidlanishicha, xalqaro tashkilot unga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni talab qilishi mumkin: "Har qanday huquqiy tizimda huquq subyektlari xarakteriga yoki huquqlari doirasiga ko'ra bir xil bo'lishi shart emas; ularning huquqiy tabiati jamiyat ehtiyojlariga bog'liq. Xalqaro huquqning rivojlanish tarixi davomida u asosan xalqaro hayot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda rivojlanib kelgan. Davlatlar jamoaviy faoliyati ko'lamining bosqichma-bosqich kengayishi ba'zi vaziyatlarda xalqaro darajadagi harakatlar davlat bo'lmagan xalqaro munosabatlarning ayrim sub'yektlar tomonidan ham amalga oshirilishiga olib keldi" (International Court of

Justice Reports, 1949). "... mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan huquq sub'yektlarining turlari masalasida mutlaq murosasizlik amaldagi holatga javob bermaydi, chunki buni qabul qilish va sukut saqlagan holda tan olish anomaliya hisoblangan va shu bilan birga xalqaro miqyosda keng huquqiy munosabatlarga ega tuzilmaning mavjudligiga zamin yaratishi mumkin" (Brounli, 1977). Birlashmalarni huquq sub'yekti sifatida rasmiy tan olish va ro'yxatdan o'tkazish uchun konstitutsiyaviy tizim mavjud bo'lmagan joyda, yuqoridagi satrlar muallifi, Yan Braunlining fikricha, "bunday tuzilmalarni huquq sub'yekti sifatida e'tirof etishning asosiy mezoni, bu ularning funksiyalaridir" (Brounli, 1977).

Shuni ta'kidlash kerakki, XOQ ko'rsatmalari va Olimpiya Xartiyasi qoidalari barcha hukumatlar va davlat rahbarlari tomonidan qat'iy va to'liq miqdorda bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, XOQ shafeligida va uning reglamentlariga muvofiq o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish har doim davlat rahbarlari tomonidan o'zlari va mamlakatlari uchun eng katta sharaf sifatida qabul qilingan. Shu bilan birga, ta'kidlashimiz joizki, Olimpiya Xartiyasi normalariga XOQning hech qanday bosimisiz bu qadar bo'ysunishga, faqat uning xalqaro obro'e'tibori tufayli erishiladi. Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish marosimi yaqqol xalqaro hamda davlatlararo xarakterga ega ekanligi alohida e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihat hisoblanadi. Davlat madhiyalarini ijro etish, davlat bayroqlarini olib o'tish va tantanali ravishda ko'tarish, mezbon davlat rasmiylari va xalqaro tashkilotlar rahbarlari, ishtirokchi mamlakatlarning sport delegatsiyalari va boshqalarning harakatlari – barchasi XOQ va Olimpiya Xartiyasining reglamentlari, tartibtaomillari va protokollariga bo'ysundirilgan. Bunda ba'zi mutaxassislar tomonidan xalqaro nodavlat tashkilotlarini xalqaro xususiy huquq sub'yekti sifatida e'tirof etilishiga qaramasdan, xalqaro ommaviy huquq normalarining amal qilishiga guvoh bo'lamiz.

Olimpiya o'yinlari davomida sport arenalari-da va ularning atrofida sodir bo'ladigan barcha voqea-hodisalar (musobaqalar, hakamlik, ishtirokchilar va faxriy mehmonlarning yashash sharoitlari va joylashtirilishi, kuzatuvchilar va ommaviy axborot vositalari vakillarini akkreditatsiya qilish, barcha marosimlar, uchrashuvlar, Olimpiya ramzlaridan foydalanish, o'yinlarni translyatsiya qilish, bosma nashrlar va Olimpiya o'yinlariga oid boshqa masalalar) XOQning mutlaq kompetensiyasi doirasiga kiradi. Faqat u Olimpiya o'yinlari tashkiliy qo'mitasi (OO'TQ)

mas'uliyati ostidagi barcha ob'yektlarda qo'llaniladigan protokollarni belgilab berish huquqiga ega. Ko'rib turganimizdek, XOQ rahbarligida har to'rt yilda bir marta sayyora miqyosidagi tadbir bo'lib o'tadi, ushbu tadbir ta'siri dunyoning barcha davlatlari, o'yinlarni qabul qiluvchi mamlakatlar rahbarlari, ularning rasmiy vakillari, hukumatlar, Vazirlar, dunyo poytaxt shaharlari hokimlari va boshqa organlarga tarqaladi. Ularning har birida XOQning huquqiy normalari bilan yuklanuvchi majburiyatlar mavjud bo'lib, ushbu majburiyatlar so'zsiz va qat'iy bajariladi.

Shubhasizki, xalqaro huquq sub'yekti sifatlariga ega bo'lgan, xalqaro Olimpiya harakatiga rahbarlik qilish bilan bog'liq vazifalarini amalga oshiradigan, Olimpiya Xartiyasi qoidalariga muvofiq xalqaro tashkilotlar va davlat organlari bilan hamkorlik qiladigan XOQ xalqaro shartnomaviy huquq layoqatiga ega bo'lmasligi mumkin emas. Ushbu huquq layoqatini amalga oshirish orqali XOQ xalqaro huquqning ushbu sub'yektlari bilan ommaviy huquqiy xarakterdagi xalqaro shartnomalarni tuzadi.

Masalan, XOQ Olimpiya o'yinlari "mezbon shahri va mezbon mamlakat Milliy Olimpiya qo'mitasi bilan yozma shartnoma" tuzadi (Olympic Charter, 2021) va unda taraflar zimmasiga yuklatiladigan majburiyatlar batafsil belgilab beriladi. Bunday shartnoma mezbon shahar tanlangandan so'ng darhol imzolanadi. "Agar, tanlangan shahar XOQga tegishli mamlakat hukumati tomonidan tayyorlangan va mazkur mamlakatning Olimpiya Xartiyasiga rioya qilishini kafolatlovchi hujjatni taqdim qilmasa", unga olimpiya o'yinlarini tashkil qilish huquqi berilmaydi (Olympic Charter, 2021).

Bir qator G'arb tadqiqotchilari, masalan, J. Nafziger (AQSH) Olimpiya Xartiyasi qoidalari va XOQning boshqa huquqiy normalari, ularning xalqaro ta'siri va qo'llanilish doirasini hisobga olgan holda, umumiy xalqaro huquqning boshqa normalari bilan bir xil yuridik kuchga ega deb hisoblaydi. Shu bilan birga, XOQ qoidalarida aks ettirilgan umume'tirof etilgan xalqaro amaliyot hamda xalqaro huquqiy odat normalarining belgilari o'rtasida o'xshashlik mavjudligi haqida fikr bildiriladi. Bundan xulosa shuki, Olimpiya Xartiyasi qoidalari majburiy xarakterga ega bo'lib, "Olimpiya harakatida ma'lum bir o'ringa ega bo'lgan har qanday shaxs yoki tashkilot XOQning oliy hokimiyatini tan olishi kerak: ular XOQ qoidalari va uning yurisdiksiyasiga bo'ysunadilar" (Vedder, 1984).

J. Nafzigning fikriga ko'ra, Olimpiya Xartiyasi hamda unga asoslangan qarorlar va amaliyotlar XOQning noyob huquqiy layoqatga

egaligi va Olimpiya qoidalarining xalqaro ahamiyatini isbotlovchi dalildir (Nafziger et al., 2013). Muallifning so'zlariga ko'ra, bu Olimpiya Xartiyasi qoidalari turli davlatlarning ichki qonunchiligi va milliy siyosatida tobora ko'proq aks etayotganligida namoyon bo'ladi. Bunga misol sifatida: AQSH ning havaskor sport to'g'risidagi qonuni 1978-y., Avstraliyaning Olimpiya ramzlarini himoya qilish to'g'risidagi qonuni 1987-y., Seuldagi Osiyo va Olimpiya o'yinlari tashkiliy qo'mitalarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Koreya Respublikasi qonun 1981-y. (Act supporting, 1983) va boshqalarni keltirish mumkin. Bu borada ko'pchilik mualliflar Olimpiya talablariga mos tarzda maxsus ishlab chiqilgan AQSH qonunchiligiga alohida to'xtaladilar.

Xalqaro sport faoliyatini tartibga solish masalalari bo'yicha XOQning mutlaq va ustuvor huquqlari 1981-yilda Keniya poytaxtida beshta bir-biriga bog'langan halqadan iborat va XOQning mutlaq mulki hisoblangan Olimpiya ramzini himoya qilish to'g'risidagi Nairobi shartnomasini imzolagan Butunjahon intellektual mulk tashkilotiga (BIMT) a'zo davlatlar tomonidan ham tasdiqlangan.

Olimpiya Xartiyasining qoidalari nufuzli xalqaro tashkilotlar va konferensiyalar faoliyatida tobora ko'proq o'z aksini topmoqda. Shunday qilib, 1978-yilda Yevropa sport vazirlarining ikkinchi (hukumatlararo) konferensiyasi Olimpiya Xartiyasi vakolatlarini (authority) ratifikatsiya qiluvchi qaror qabul qildi (Soxin, 2003).

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan sportda aparteidga qarshi xalqaro Konvensiyada (1985-yil 10 dekabrda 40/64 G rezolyutsiyasi) Olimpiya Xartiyasi tomonidan belgilab qo'yilgan irqiy, diniy yoki siyosiy belgilarga ko'ra har qanday kamsitishni taqiqlovchi "Olimpiya tamoyili" mustahkamlab qo'yilgan (Convention international, 1990).

Olimpiya Xartiyasining huquqiy tabiati haqida gapirganda, shuni ta'kidlash kerakki, uning qoidalari nafaqat xalqaro huquq normalari sifatida keng tan olinib bormoqda, balki xalqaro huquqning yangi tarmog'i - xalqaro sport huquqining shakllanishi uchun asos bo'lib ham xizmat qilmoqda.

Xulosa. Olimpiya Xartiyasi maxsus turdagi xalqaro hujjat (sui generis) bo'lib, buni XOQning huquqiy maqomi va uning tashabbusi bilan qabul qilingan normativ hujjatlarning huquqiy tabiatini belgilashda e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasining huquqiy maqomini maxsus o'rgangan J. Nafziger ta'kidlashicha: "XOQ texnik jihatdan Olimpiya arenaridan tashqarida faqat cheklangan vakolatlarga ega bo'lgan nodavlat tashkilot bo'lsa ham, uning global sport hamjamiyati ehtiyojlariga doimiy ravishda javob berishi (response) XOQ qabul qilgan normalarni xalqaro sport musobaqalarini tartibga solishning asosiy vositasiga aylantirdi".

Xulosa qilgan holda, XOQ nodavlat tashkilot sifatida xalqaro huquqiy layoqatga ega deb

hisoblaymiz. Shuni ham ta'kidlash kerakki, muayyan xalqaro nodavlat tashkilotida ushbu sifatning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida gapirganda mazkur tashkilot tomonidan bajariladigan funksiyalarga jahon hamjamiyatida ob'yektiv talabning mavjudligidan kelib chiqish kerak. Ushbu funksiyalar nodavlat tashkilotlar tomonidan xalqaro munosabatlarning spetsifik sohalarida o'ziga xos usullar va vositalar yordamida va ular ishtirokida ishlab chiqilgan xalqaro huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Аннотация. В данной статье анализируются основные методы и подходы к сущности и реализации международной правосубъектности Международного олимпийского комитета, а также говорится об обязательности и неукоснительном соблюдении решений МОК, основанных на положениях Олимпийской хартии для субъектов международного права, включая государства.

Ключевые слова: Международный олимпийский комитет, Международное олимпийское движение, Олимпийская хартия, субъект международного права, международная неправительственная организация, международная межправительственная организация, международно-правовое признание.

Annotation. This article analyzes the main methods and approaches to the essence and implementation of the international legal capacity of the International Olympic Committee and also talks about the binding and strict observance of IOC decisions based on the provisions of the Olympic Charter for subjects of international law including states.

Key words: International Olympic Committee, International Olympic Movement, Olympic Charter, subject of international law, international non-governmental organization, international intergovernmental organization, international legal recognition.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Reparation for Injuries Suffered in the Service of the United Nations. Overview of the case // International Court of Justice Reports, (1949). <https://www.icj-cij.org/en/case/4/>;
2. Броунли Я. (1977) Международное право (в двух книгах). Книга первая // Пер. с англ. С.Н. Андрианова / Под. ред. и вступит. статьей Г.И. Тункина. – М.: Изд. «Прогресс»;
3. Olympic Charter. IOC is in force as of 8 August 2021. (2021) // <https://stillmed.olympics.com/media/Document%20Library/OlympicOrg/General/EN-Olympic-Charter.pdf>;
4. Vedder K. (1984) International Olympic Committee: An Advanced Non-Governmental Organization and the International Law // German Yearbook of International Law. Vol. 27;
5. James A. R. Nafziger, Stephen F. Ross (2013) Handbook on International Sports Law. Edward Elgar. ISBN, 085793466X, 9780857934666; Length, 567 pages;
6. Act supporting the Organizing Committees for the Seoul Asian Games and Olympic Games (1983). Laws of the Republic of Korea. Fourth Edition. Korean Legal Center. –Vol. 1. – III-79;
7. Сохин Ю.Г. (2003) Олимпийская хартия как правовая основа функционирования МОК // Вестник РУДН. Сер. Юридические науки. № 2;
8. Convention international contre l'apartheid dans le sport. Public par le Centre des Nations Unies contre l'apartheid. (1990).